

## O‘ZBEKISTONNING TASHQI SAVDOSIDA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING ROLI

*Z.R.Sodikov, i.f.n., dotsent  
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

Milliy iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi iqtisodiy aloqalarni va integratsiyalashuvni mintaqa miqyosida faollashtirishni talab etadi. Bu vaziyatning yuzaga chiqishida ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-geografik omillar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Lekin, ko‘pgina jarayonlar kabi tashqi savdo aloqalari ham iqtisodiy manfaat va sabablar jarayonlarining ustuvor omili bo‘lib, qolganlari ularga ko‘makchi xususiyatiga ega.

Zero har qanday iqtisodiy faoliyatning asosiy maqsadi iqtisodiy yuksalish va milliy farovonlikni oshirishdan iborat. Shulardan biri bu tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va jahon bozoriga integratsiyalashuvni chuqurlashtirish ham aynan iqtisodiy taraqqiyotni ko‘zda tutadi. Shu bois, mintaqaviy miqyosda mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni erkinlashtiruvchi tizim tashkil etiladi va savdo-iqtisodiy aloqalar kengaytiriladi. Hozirgi kunda mamlakatimiz geografik va madaniy-ijtimoiy shart-sharoitlar hamda iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqib, qator mamlakatlar va mintaqaviy integratsiya doirasidagi milliy bozorlar bilan iqtisodiy munosabatlar jarayonlarini tashkil qilib, tashqi bozordagi faoliyatini rivojlantirishda davom etmoqda. Milliy iqtisodiyotlar va mintaqaviy bozorlar bilan integratsiya bo‘lishi, uning ko‘lami va ishtirok etayotgan mamlakatlarning barqaror rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv jarayoni chuqurlashib borayotgan sharoitda Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilayotgan islohotlar va ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan takomillashtirish tadbirlari o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga rag‘bat hosil qilmoqda. Mazkur tendensiya milliy iqtisodiyotlarni tarkibiy jihatdan takomillashuviga va modernizatsiya bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatish orqali tashqi savdoda tovar va xizmatlar hajmining kengayishiga olib keladi. Natijada tovar va xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi va talab hajmining yuksalishi sodir bo‘ladi.

Bundan tashqari, bu mintaqa mamlakatlarida ayrim xomashyo va investitsiya tovarlarining ta’minoti ham tashqi iqtisodiy aloqalarning faollashuvini kuchaytiradi. Bu shart-sharoitlar tashqi savdo va mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotlarining o‘zaro aloqalarining ustuvor ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bois, mamlakatimizning yaqin qo‘shni va mintaqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘sish tendensiyasini tadqiq etish talab etiladi.

O‘zbekiston keng iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan va integratsiyalashgan milliy bozor bu Markaziy Osiyo mamlakatlari bozori bo‘lib, u mintaqaga kiruvchi mamlakatlar bilan milliy madaniy-tarixiy xususiyatlari va tabiiy-geografik shart-sharoitlari bir xilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, mazkur mintaqa doirasidagi davlatlar bilan maqsadlariga muvofiq keladigan tizim va shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilganligi aytish qiyin. Shu bois jarayonni chuqurlashuv tendensiyasi iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilinishi mumkin.

Zero, muayyan mintaqada mamlakatlarning iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularga mamlakatlarning o'zaro tashqi savdo aylanmasini, eksport hajmini va uning yalpi ichki mahsulotdagi nisbatini kiritish mumkin. Bu ko'rsatkichlar ichida integratsiya tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotga nisbati katta ahamiyatga ega bo'lib, ular milliy bozorlarning o'zaro ochiqlik miqyosini, ya'ni, mamlakatlarning ishlab chiqarish va iste'mol borasida tashqi bozorga bog'liqligini ko'rsatadi.

Jahon xo'jaligida globallashuv avj olib borayotgan sharoitda mamlakatimizning yaqin qo'shnilari bo'lmish Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarining rivojlanish tendensiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu keltirilgan jadvalda mamlakatimizning 21-asrda Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aloqalari, eksport va importi aks etgan.

### 1-jadval

#### O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarining tendensiyasi<sup>228</sup> mln. AQSH doll.

No	Mamlakatlar	2000	2010	2016	2017	2018	2019	2020	2021	
<b>Tashqi savdo aylanmasi tendensiyasi</b>										
1	Qozog'iston	316,4	1883,6	1989,9	2055,8	2919,6	3335,0	3005,7	3920,6	
2	Qirg'iziston	144,9	147,4	167,5	253,7	402,8	820,3	907,2	953,6	
3	Tojikiston	120,2	133,4	197,0	237,9	390,5	480,5	493,1	605,5	
4	Turkmaniston	193,5	365,5	209,0	177,9	302,8	554,4	538,2	902,0	
	<b>Jami</b>	775	2529,9	2563,4	2725,3	4015,7	5190,2	4451,1	6381,7	
<b>Eksportning o'zgarish tendensiyasi</b>										
1	Qozog'iston	100,8	886,5	945,0	1057,6	1352,2	1393,0	908,4	1178,4	11,7
2	Qirg'iziston	50,9	105,2	121,5	178,3	269,7	669,6	760,5	792,0	15,6
3	Tojikiston	100,9	120,7	164,8	186,1	237,5	327,6	405,1	501,9	5,0
4	Turkmaniston	175,4	120,7	79,5	69,9	59,5	144,3	126,1	191,9	9%ga
	<b>Jami</b>	428	1233,1	1310,8	1491,9	1918,9	2534,5	2200,1	2664,2	
	Jami eksportga nisbati, %	13,1	9,5	10,8	11,9	13,7	14,5	14,6	16,0	
<b>Importning o'zgarish tendensiyasi</b>										
1	Qozog'iston	215,6	997,1	953,9	998,2	1567,4	1942,0	2097,3	2742,2	12,7
2	Qirg'iziston	94,0	42,4	46,0	75,4	133,1	150,7	146,7	161,6	1,7
3	Tojikiston	19,3	12,7	32,2	51,8	153,0	152,9	88,0	103,6	5,4
4	Turkmaniston	18,1	244,8	129,5	108,0	243,3	410,1	412,1	710,1	39,2
	<b>Jami</b>	347	1297	1161,6	1233,4	2096,8	2655,7	2744,1	3717,5	
	Jami importga nisbati, %	11,8	14,1	9,6	8,8	10,8	10,9	13,0	14,6	

Avvalo, e'tibor berish kerakku, bu mamlakatlarning 20-asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi va rivojlanish jarayoni umumiy xarakteriga ega va o'xshash vaziyatlari mavjud. Shu bois bu mamlakatlarning bozor iqtisodiyotini shakllantirish

<sup>228</sup>stat.uz.

shart-sharoitlari va xalqaro bozorlarga kirib borish vaziyati o'xshash va o'zaro bog'liq bo'lgani uchun bir-biri bilan samarali savdo aloqalarini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bu milliy bozorlar oldindan uzoq vaqt mobaynida hamkorlikda yagona tizim doirasida faoliyat olib borgan bo'lib, u tajribalardan foydalanish foydadan xoli bo'lmas edi. Faqat ushbu tahlilda masalaning bu jihatiga emas, balki, O'zbekistonning yaqin qo'shni mamlakatlari bilan 21-asrning dastlabki 20 yilida amalga oshirgan savdo jarayoniga qaratiladi.

Mamlakatimizning ushbu mintaqada kechayotgan jarayonlardagi o'rni va savdo aloqalarining tendensiyasi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida yaqqol ko'rinadi. Bu mintaqada mamlakatlari ichida savdo aloqalari Qozog'iston bilan salmoqli darajada rivojlangan, qolganlari bilan esa nisbatan chekli darajada aloqalar mavjudligini ma'lumotlardan xulosa qilish mumkin. Xususan, 2021 yilda 2000 yilga nisbatan bu mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi o'rtacha 8,2 baravarga, eksport hajmi 6,2 baravarga va import hajmi 10,7 baravarga ortgan. Aynan tahlil qilinayotgan davr mobaynida eksport Qozog'istonga 11,7 baravarga, Qirg'izistonga 15,6 baravarga, Tojikistonga 5,0 baravarga va Turkmanistonga 9%ga ortgan bo'lsa, import esa Qozog'istondan 12,7 baravarga, Qirg'izistondan 1,7 baravarga, Tojikistondan 5,4 baravarga va Turkmanistondan 39,2 baravarga ortgan.

Ayni paytda tashqi savdo aloqalari Qozog'iston va Turkmaniston bilan jadvalda keltirilgan ayrim yillarda musbat saldo bo'lsa, keyingi yillarda esa manfiy saldo kuzatilgan, shuningdek, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonga eksport o'sish, import esa Qozog'iston bilan o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Shuningdek, bu mamlakatlar bilan tashqi savdo saldosi Qozog'iston va Turkmaniston bilan manfiy, Qirg'iziston va Tojikiston bilan musbat xarakterli bo'lgan. O'zbekistonning iqtisodiy aloqalari Qozog'iston bilan yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsada, ammo u yetarli emas. Binobarin, Qozog'iston iqtisodiyoti keyingi yillarda tez sur'atda o'sib, tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Lekin tashqi savdo aloqalari qolgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yetarli darajada rivojlanmaganligi ko'zga tashlanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida bu mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun asos mavjud bo'lib, undan unumli foydalanish kerak. Demak, Qozog'iston va Turkmaniston bilan import, Tojikiston va Qirg'iziston bilan eksport yo'nalishida savdo o'sib borayotgan bo'lsada, uni yana jadallashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida bu mamlakatlar bilan savdo aylanmasining salmog'i yalpi ichki mahsulotga nisbatan juda cheklanganligini xulosa qilish mumkin. Shu bois ular bilan nafaqat savdo, balki investitsiya borasida ham hamkorlikni faollashtirish va chuqurlashtirish lozim.